

Go'zal Nuriddinova

*Kamoliddin Bexzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
“San’atshunoslik” kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: GuzalNur999@gmail.com*

O‘ZBEKISTON AMALIY BEZAK SAN’ATI SOHASIDAGI BADIY TA’LIMI TIZIMI

***Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston badiiy ta’lim tizimining evolyutsiyasi va zamonaviy holati, asosiy e’tiborni xalq amaliy san’ati an’analarini asrab-avaylash hamda rivojlantirishga qaratgan holda ko‘rib chiqiladi. Muallif kulolchilik, zargarlik (misgarlik), yog‘och o‘ymakorligi va zardo‘zlik kabi milliy hunarmandchilik turlariga singdirilgan noyob madaniy kodni avlod-dan-avlodga yetkazishda ta’lim muassasalarining o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqotda an’anaviy “ustoz-shogird” o‘qitish uslublarining oliy o‘quv yurtlari va ixtisoslashtirilgan san’at maktablarining zamonaviy akademik dasturlariga integratsiyalashuvi tadqiq etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** badiiy ta’lim, amaliy-bezak san’ati, an’analar, “ustoz-shogird” tizimi, madaniy meros, milliy o‘zlikni anglash, akademik ta’lim.*

THE SYSTEM OF ART EDUCATION IN THE FIELD OF APPLIED DECORATIVE ARTS OF UZBEKISTAN

***Abstract.** The article examines the evolution and current state of Uzbekistan’s art education system, with a particular focus on preserving and developing the traditions of folk applied arts. The author analyzes the role of educational institutions in transmitting the unique cultural code embedded in national crafts such as ceramics, jewelry (metalwork/coppersmithing), wood carving, and gold embroidery from generation to generation. The study explores the integration of the traditional “master–apprentice” teaching model into the modern academic curricula of higher education institutions and specialized art schools.*

Keywords: *art education, applied decorative arts, traditions, “master–apprentice” system, cultural heritage, national identity, academic education.*

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va uning natijasi o'laroq yuzaga kelayotgan madaniy integratsiya jarayonida badiiy ta'limni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi, ko'p jihatdan, O'zbekistonning amaliy bezak san'ati sohasidagi ta'lim tizimi shakllanishining tizimlashtirilgan paradigmasini aks ettiruvchi yaxlit tadqiqot mavjud emasligi bilan belgilanadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumati tomonidan badiiy ta'lim sohasida ma'naviy, axloqiy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan turli dasturlar qabul qilindi.

O'zbekiston hududida qadim zamonlardan buyon o'ziga xos va betakror mintaqaviy badiiy maktablar mavjud bo'lib, ularda san'atning noyob durdonalari yaratilgan. Badiiy metallga ishlov berish va zargarlik buyumlari ishlab chiqarish sohasida ijod qilgan mahalliy ustalar yuksak iste'dod va professionallikka ega bo'lganlar. O'z navbatida, mahalliy badiiy maktablarning rivojlanishini shakllangan “ustoz-shogird” tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu tizim asosiga an'analar davomiyligi kabi xususiyatlar poydevor qilib qo'yilgan bo'lib, Markaziy Osiyo amaliy bezak san'ati yodgorliklarining o'zi bunga yaqqol dalildir.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, mintaqada badiiy madaniyatning barcha sohalarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. An'anaviy “ustoz-shogird” modeli asosan amaliy san'at turlarida (kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, chitgarlik, kandakorlik va boshqalar) saqlanib qoldi. Ushbu o'zgarishlar mintaqaga Yevropa san'atining kirib kelishi bilan bog'liqdir. XX asrda O'zbekistonda, butun Markaziy Osiyo mintaqasida bo'lgani kabi, madaniyatning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda san'atning Yevropaga xos turlari – teatr, kinematografiya, rangtasvir, haykaltaroshlik, balet, opera va boshqalar keng tarqala boshladi va faol rivojlandi [1, 8-b].

O'zbekistonda an'anaviy "ustoz-shogird" tizimi hozirgi kunimizga qadar saqlanib qolgan. Har bir usta, qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar, o'z mahorati sirlarini izdoshlariga o'rgatishga harakat qiladi. O'z navbatida, o'rta asrlardan an'anaviy "ustoz-shogird" tizimining asosiy ma'naviy-axloqiy qoidalari aniq ifodalangan yozma manbalar meros bo'lib qolgan. Ushbu tizim bugungi kunda respublikaning oliy badiiy ta'lim tizimida ham munosib davom ettirilmoqda. "Ustoz-shogird" tizimi – mintaqaning amaliy bezak san'ati an'analari davomiyligini saqlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi oliy o'quv yurtlari va ularning viloyat markazlaridagi filiallari ochildi, o'rta maxsus professional ta'lim tizimini qayta tashkil etish faol olib borildi, oliy ta'limning ko'p bosqichli tizimga (bakalavriat – magistratura) o'tishi amalga oshirildi, abituriyent va talabalar bilim darajasini baholashning test sinovlari hamda reyting nazoratiga asoslangan ilg'or usullari joriy etildi.

Istiqlolning birinchi dekadasida amaliy-bezak san'ati sohasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ushbu tarmoq qayta tiklanib, zamon talablari asosida yangi an'alar bilan boyitildi. Avvalo, soha faoliyati uchun huquqiy baza yaratildi.

1997-yil 4-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Hunarmand" uyushmasini tashkil etish va uning faoliyat vazifalari to'g'risida qaror qabul qilindi. O'zbekistonda ijodiy salohiyatni rivojlantirish va san'at arboblari rag'batlantirish bilan O'zbekiston Badiiy akademiyasi Ijodiy uyushmasi, "Usto" xalq ustalari ijodiy birlashmalari kabi jamoat tashkilotlari ham shug'ullanib kelmoqda [2, 15-b].

Badiiy ta'limni rivojlantirishda O'zbekiston Badiiy akademiyasi ixtisoslashtirilgan maktablari o'quvchilarining, shuningdek, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti talaba va magistrklarining amaliy-bezak san'ati sohasidagi ijodiy o'ziga xosligi muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston davlat mustaqilligining 35 yili davomida madaniyat sohasidagi umumiy o'zgarishlar fonida uning tarkibiy qismlari, xususan, amaliy bezak san'ati ham sezilarli darajada

o'zgardi. Xalqimizning ko'p asrlik an'alariga sodiq qolgan holda, san'atning ushbu turlari yangi tamoyillar va yo'nalishlar bilan boyidi. Mazkur sohadagi davlat qo'llab-quvvatlovi tufayli rivojlanishning yangi ustuvor yo'nalishlari belgilandi, bu esa ustalar va hunarmandlar o'rtasidagi ijodiy hamkorlik chegaralarini kengaytirishga xizmat qildi.

Ushbu jarayonning yorqin ifodalaridan biri barcha turdagi boy va janriy xilma-xillikka ega bo'lgan an'anaviy xalq ijodiyoti bo'ldi. XX asrda sezilarli darajada zarar ko'rgan milliy hunarmandchilik turlarini qo'llab-quvvatlash va qayta tiklashga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga kelib, mustaqillik yillarida "ikkinchi hayotini" topgan san'at turlari ro'yxatiga kulolchilik, badiiy kashtachilik, ipakchilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik, zargarlik va metallga badiiy ishlov berish, shuningdek, lakli miniatyura, yog'och va ganch o'ymakorligi, charm bilan ishlash, musiqiy asboblarni yaratish hamda ularga bezak berish san'ati kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston amaliy bezak san'ati – nafaqat moddiy madaniyat qatlami, balki axloqiy va estetik qadriyatlarni uzatuvchi (translyatsiya qiluvchi) murakkab tizimdir. Globallashuvning zamonaviy sharoitida ta'lim orqali milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish strategik vazifaga aylanmoqda. Amaliy bezak san'atini o'qitishning metodologik asosi bugungi kunda hunarmandchilikni konservativ saqlash hamda kreativ industriyalar talab qiladigan loyihaviy tafakkurni joriy etish zaruriyati chorrahasida turibdi.

O'zbekistonda amaliy-bezak san'ati sohasidagi ta'lim madaniy merosni saqlash va zamonaviy amaliy bezak san'atini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Badiiy to'qimachilik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, gilamdo'zlik, kashtachilik, zargarlik va charmgarlik kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan amaliy san'at badiiy tasavvur va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini talab etadi. Zamonaviy madaniyat Toshkentda shakllangan an'anaviy madaniyatni siqib chiqarmoqda va buzmoqda. Muammoning ijtimoiy-tarixiy jihati tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliy bezak san'ati o'tgan asrlar an'anasi bo'lib, katta tarbiyaviy va ta'limiy salohiyatga ega, bu esa

ta'lim rivojining hozirgi bosqichida to'liq hisobga olinmayapti, natijada avlodlar o'rtasidagi aloqaning uzilishiga, yoshlarning intellektual befarqligiga olib kelmoqda.

Davlat tomonidan amaliy-bezak san'ati sohasida bevosita professional kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda bu o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida, shuningdek keng tarqalgan hunarmandchilik ustaxonalarida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ustaxonalarda ham, badiiy ta'lim muassasalarida ham o'qitish uslubiylatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri "ustoz-shogird" an'anaviy ta'lim tizimini keng joriy etishdir. Uning negizida o'sib kelayotgan avlodga tajribani og'zaki va amaliy tarzda yetkazish yotadi. Bunday keng qamrovli ta'lim va yoshlar orasida milliy amaliy san'atning ommalashuvi tufayli, xizmat ko'rsatgan ustalar va ularning shogirdlari – badiiy hunarmandchilikning turli maktablari vakillari bugungi kunda nufuzli xalqaro va respublika ko'rgazmalarining doimiy ishtirokchilari hisoblanadilar.

"Ustoz-shogird" tizimi nafaqat usta va shogirdning birgalikdagi mehnatini, balki tajribali pedagog-ustoz tomonidan yosh yoki yetarli tajribaga ega bo'lmagan o'qituvchini qo'llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi. Bunday ustoz ish joyida unga amaliy yordam ko'rsatishga, uning nazariy va kasbiy kompetensiyasini oshirishga qodir bo'ladi. Ustoz – yosh o'qituvchiga ta'lim muassasasining barcha tarkibiy bo'linmalari faoliyati bilan tanishishga ko'maklashuvchi va uning jamoadagi o'rnini anglashiga yordam beruvchi "navigator"dir. Shuningdek, u o'qituvchilarning kasbiy mahoratini uzluksiz oshirish jarayonida ishtirok etuvchi maslahatchi hamdir. Ustozlik, o'z mohiyatiga ko'ra, Sharqda bilim uzatishning eng qadimiy usullaridan biri bo'lsa-da, ta'lim tizimi doirasida shakllantirilgan "ustoz-shogird" usuli yanada maqsadli va rejali xarakterga ega bo'ladi.

Misol uchun Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi 1966-yildagi zilzila oqibatlarini bartaraf etish uchun malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida bilim yurti sifatida tashkil etilgan. 1997-yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tuzilmasidagi Respublika dizayn kollejiga o'zgartirilgan. Maktab zamonaviy o'quv binolari, ustaxonalar, klub, sport zallari, kutubxona, ishlab chiqarish amaliyoti

sexlariga ega. Iste'dodli o'quvchilar badiiy ko'rgazmalarda, binolarni rekonstruksiya va restavratsiya qilishda ishtirok etadilar [3, 12-b].

Ushbu maktabda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'qitiladi: mebel dizayner-loyihachisi, amaliy-yodgorlik san'ati dizayner-loyihachisi, lokli miniatyura ustasi, amaliy san'at, chinni mahsulotlari usta-rassomi, milliy badiiy kostyumlar dekorator-loyihachisi, ganch usta-rassomi, naqqosh usta-rassom, yog'och o'ymakorligi usta-rassomi, badiiy gilamlar va gobelenlar ishlab chiqarish usta-rassomi, badiiy kashtachilik ustasi, zardo'zlik ustasi, zargarlik buyumlari usta-rassomi va rassom-kulol.

O'qitish usullarining xilma-xilligi – ma'ruzalar va seminarlardan tortib, mahorat darslari va amaliy mashg'ulotlargaacha – dinamik ta'lim muhitini yaratadi. Multimedia texnologiyalari va raqamli resurslardan foydalanish ham fanni chuqurroq tushunishga yordam beradi va o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi. Bu yo'nalishlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, san'at asarlarini turli nuqtayi nazardan tahlil qilishga imkon beradi. O'quvchilar o'z fikrlarini shakllantirishni va ularni asoslashni o'rganadilar, bu esa ularning badiiy tilini rivojlantirish uchun muhimdir.

Bugungi kunda O'zbekiston amaliy bezak san'ati sohasidagi ta'limning nazariy poydevori uchta konseptga asoslanadi. Birinchisi – madaniy-genetik kod, ya'ni naqsh semantikasini shunchaki bezak emas, balki falsafa va tarix tili sifatida o'rganishdir. Ikkinchisi – etnopedagogika, ya'ni mehnatga o'rgatish ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan xalq pedagogikasi salohiyatidan foydalanishdir. Uchinchisi – akademik sintez, ya'ni amaliy hunar o'rganish jarayoniga klassik san'atshunoslik tahlilini integratsiya qilishdir [4, 15-b].

O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim paradigmasi universitet muhitiga moslashtirilgan an'anaviy "ustoz-shogird" modeliga tayanadi. Agar ilgari o'qitish imitatsion xarakterga ega bo'lgan bo'lsa (ustoz ketidan takrorlash), bugungi kunda ushbu metodologiya texnologik jarayonning har bir bosqichini nazariy asoslash bilan to'ldirilmoqda. Talabalar ishlab chiqarish texnologiyasini (kulolchilik,

to'qimachilik, o'ymakorlik) xomashyoshunoslik, bo'yoqlar kimyosi qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida o'rganmoqdalar. Bugun metodologiya "hunarmandchilik"dan "dizayn-loyihalash" bosqichiga o'tmoqda. Talaba etnik o'ziga xoslikni saqlab qolgan, shu bilan birga zamonaviy interer yoki moda ergonomikasi hamda estetikasi talablariga javob beradigan art-obyekt yaratishni o'rganadi. O'zbekistondagi ta'lim metodologiyasini ustozlarning shaxsiy ta'sirisiz tasavvur etib bo'lmaydi, zero ular shogirdlariga nafaqat texnik usullarni o'rgatgan, balki ularning ongiga xomashyoga nisbatan axloqiy munosabatda bo'lish kodini ham singdirganlar.

Xususan, Rishton kulolchilik maktabida zamonaviy o'qitish metodikasining poydevorini usta Ibrohim Komilov yaratgan. Uning metodologiyasi "ishqor" (o'simlik siri) texnologiyasini chuqur o'rganishga asoslangan edi. Uning shogirdi va davomchisi – Alisher Nazirov bugungi kunda o'zining usta-shogird maktabida yangi avlod ustalariga ta'lim berib, shaklning konseptual tahlili usullarini amaliyotga joriy etmoqda.

Shuningdek, Buxoro kandakorlik maktabida sulola davomchisi, usta Salimjon Hamidov asosiy shaxs hisoblanadi. Uning pedagogik usuli an'anaviy o'ymakorlikning 20 dan ortiq turini bosqichma-bosqich o'zlashtirishga asoslangan. Uning shogirdlari, xususan, Akbar Hamidov bugungi kunda zamonaviy akademik muhitda "murakkab ornamental ritm" metodologiyasini rivojlantirishda davom etmoqda [5, 248-b].

Yog'och o'ymakorligini o'qitish metodologiyasiga O'zbekiston xalq ustasi Ortiq Fayzullayev ulkan hissa qo'shgan. U o'ymakorlikning turli uslublarini (pargori, bagdodi) tizimlashtirib, o'quv qo'llanmalari holiga keltirdi. Uning Sirojiddin Rahmatullayev kabi shogirdlari bugungi kunda ijodiy ustaxonalarga rahbarlik qilib, talabalarga nafaqat hunar o'rgatmoqda, balki amaliy bezak san'ati obyektlarini me'moriy loyihalash sirlarini ham bermoqdalar.

Miniatyura rangtasviri sohasida sharq miniatyurasining qayta tiklanishiga asos bo'lgan Niyozali Xolmatov maktabi alohida o'rin tutadi. Uning metodologik yondashuvi – Kamoliddin Behzod ijodi qonuniyatlarini zamonaviy kompozitsiya

prizmasi orqali o'rganishga asoslangan. Uning shogirdlari orasida Bahodir Hojimetov kabi ko'plab taniqli rassomlar bo'lib, ular bugungi kunda oliy ta'lim tizimida "Chiziq va kolorit nazariyasi"dan saboq berib kelmoqdalar.

Bugungi kunda kechagi shogirdlarning ismlari ustozlar sifatida e'tirof etilmoqda. Masalan, to'qimachilik va zardo'zlik sohasida o'tgan davr ustalari tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar yosh dizaynerlar va san'atshunoslar tomonidan xalqaro bozor talablariga moslashtirilmoqda [6, 18-b].

Xulosa qilib aytganda, quyidagi natijalarga erishildi:

1. O'zbekiston badiiy ta'limining o'ziga xos xususiyati – ikki xil ta'lim tizimi, ya'ni an'anaviy "ustoz-shogird" maktabi va Yevropa klassik ta'lim tizimining mavjudligidir. Ko'p asrlik an'analarga ega bo'lgan "ustoz-shogird" tizimi shogirdlar guruhiga individual yondashuv va vorislik tamoyillariga asoslanadi. Ushbu tizim, ayniqsa, badiiy hunarmandchilik kabi an'anaviy san'at turlarini o'rgatishda etakchi o'rin tutadi.

2. Amaliy bezak san'ati sohasida mutaxassislar tayyorlashning asosiy markazlari – O'zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi ta'lim muassasalaridir. Bularga respublikadagi 13 ta tasviriy va amaliy san'at litseyi, 3 ta badiiy maktab hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti kiradi.

3. O'zbekistonning amaliy bezak san'ati sohasidagi xalqaro yutuqlari – badiiy ta'lim yo'nalishida olib borilayotgan maqsadli va muvaffaqiyatli ishlarning amaliy isbotidir. Xususan, 2019-yilda butun postsovet hududida ilk bor O'zbekistonda dunyoning 20 mamlakatidan ijodkorlar tashrif buyurgan Birinchi Toshkent xalqaro amaliy bezak san'ati binnalesi o'tkazildi. O'zbekiston badiiy litseylari va maktablarining bitiruvchilari hamda o'quvchilari so'nggi 35 yil davomida amaliy bezak san'ati bo'yicha nufuzli xalqaro tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqdalar.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. Maktab va oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalari hamda dasturlarini qayta ko'rib chiqish. Bunda mutaxassislik sohasiga aloqador bo'lmagan fanlar sonini qisqartirish lozim. Bir qator badiiy fanlar va maxsus fanlarning o'ziga xos xususiyatlari tanlangan kasbni chuqur o'rganish uchun katta vaqt sarflashni va tegishli sharoitlarni talab etadi, shu sababli ushbu fanlar ko'lamini kengaytirish zarur.

2. Badiiy ta'limning o'ziga xosligini hisobga olgan holda, yuqori ta'lim darajasini saqlab qolish va qo'llab-quvvatlash. Buning uchun individual o'qitish va kichik guruhlarda dars o'tish tizimini saqlab qolish hamda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

3. Ta'lim oluvchilarni professional amaliyotga integratsiya qilish. Talabalarning amaliyotini Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan davlat grantlari asosida amalga oshirilayotgan loyihalarda tashkil etish, shuningdek, talabalarning xalqaro ta'lim dasturlari, festival va simpoziumlardagi ishtirokini moliyaviy hamda axborot jihatidan ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акилова К. Некоторые образовательные и научные аспекты деятельности Академии художеств Узбекистана//Санъат. – 2007. – №2. – С. 8–11.

2. Бабаджанова Г. К истории художественного образования Узбекистана// Санъат. – 2007. – №2. – С. 12–15.

3. Проблемы и перспективы развития декоративно-прикладного искусства Узбекистана//Санъат. – 2015. – №3. – С. 9–12.

4. Курбанов С. Каталог к 100-летию Республиканскому художественному колледжу им. П.Бенкова. Вступительная статья. – Ташкент: Санъат, 2018. – С. 5–15.

5. Курбанов С. Современное художественное образование Узбекистана (Обучение студентов изобразительному и прикладному искусству)//

Проблемы образования в истории и в теории архитектуры, ТАСИ. – Ташкент. – 2019. – С. 245–248.

6. Курбанов С. *Каталог к 90-летию Республиканской специализированной школе искусств интернат. Вступительная статья. – Ташкент, Санъат. – 2019. – С. 4–18*